

**X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY
NATIJALARI**

Foyda. Hisobot ma’lumotlariga ko‘ra 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiyot tarmoqlarida korxonalar va tashkilotlar tomonidan 3 568,1 mlrd. so‘m miqdorida yakuniy moliyaviy natija olindi. 2022-yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foyda hajmi 1 578,1 mlrd. so‘mga kamaygan va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 69,3 foizni tashkil qildi.

**2023-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
yakuniy moliyaviy natijalari**

	<i>Foyda, zarar (+-), mlrd. so‘m</i>	<i>2022-yilning yanvar-noyabriga nisbatan % da</i>
Jami	3 568,1	69,3
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1,2	3,4 m.
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash		
Ishlab chiqaradigan sanoat	3 852,5	76,0
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	-439,2	-
Suv bilan ta‘minlash: kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilitatsiya qilish	-20,1	-
Qurilish	13,3	8,9 m.
Savdo	29,0	16,3 m.
Tashish va saqlash	127,5	145,2
Ko‘chmas mulk bilan operatsiyalar	3,5	177,6
Professional, ilmiy va texnik faoliyat	0,4	113,4

2023-yilning yanvar-noyabr oylarini, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganimizda, foydaning asosiy o‘sishi “O‘zkimyosanoat” AJ (38,0 mlrd. so‘m), “O‘zbekneftegaz” AJ (22,6 mlrd. so‘m), “O‘zavtosanoat” AJ (4,8 mlrd. so‘m) ga to‘g‘ri keladi. Foydaning pasayishi “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ (28,6 mlrd. so‘m) hisobiga to‘g‘ri keldi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlari bo‘yicha yirik tijorat korxonalarining foydasi 4 083,5 mlrd. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 77,1 % tashkil etadi.

Hududlar kesimida foydaning asosiy qismi Nukus shahriga 3 812,0 mlrd. so‘m (jami foydaning 93,3 %), Amudaryo ga 5,4 mlrd. so‘m (0,1 %), Qo‘ng‘irotda 228,8 mlrd. so‘m (5,6 %) va Ellikqal‘a 3,7 mlrd. so‘mdan (0,1 %) to‘g‘ri keladi.


Shuningdek, Shumanay tumanida yirik tijorat korxonalari mavjud emasligi sababli, ushbu tuman bo‘yicha foyda (zarar) miqdori keltirilmagan.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida yakuniy moliyaviy natijalari

	<i>Foyda, zarar (+-), mlrd. so‘m</i>	<i>2022-yilning yanvar-noyabr nisbatan % da</i>
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 568,1	69,3
Nukus sh.	3 810,5	77,6
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	5,4	69,4
Beruniy		
Bozator	0,4	113,4
Qorao‘zak	-26,2	-
Kegeyli	0,9	118,4
Qo‘ng‘irotda	228,8	105,7
Qonliqo‘l	-23,2	-
Mo‘ynoq	-	-
Nukus	-	-
Taxiatosh	-414,3	-
Taxtakopir	-18,5	-
To‘rtko‘l	1,2	73,7
Xo‘jayli	-4,1	-
Chimboy	3,5	156,4
Ellikqal‘a	3,7	30,1

Zararlar. 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 11 ta korxonalar va tashkilotlar tomonidan 515 384,8 mln. so‘m zararga yo‘l qo‘yilgan. Zararning asosiy qismi, “Dori darmon” AJ 702,1 mln. so‘m, Davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tarkibiga kirmagan tadbirkorlik subyektlari 486 202,8 mln. so‘m O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi 837,4 mln. so‘m “O‘zdonmahsulot” AJ 1 390,2 mln. so‘m “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi 26 252,3 mln. so‘m hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**2023-yilning yanvar-noyabrda zarar ko‘rgan
korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**
(jamiga nisbatan % da)




2023-yil yanvar-noyabr oylarida 11 ta korxonalar o‘z faoliyatini zarar bilan yakunlagan bo‘lib, ko‘rilgan zararining umumiy miqdori 515 384,8 mln. so‘mni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p zarar miqdori Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish 20 127,4 mln. so‘m (korxonalar soni 1 ta, 3,9 foiz), Ulgurji va chakana savdo 702,1 mln. so‘m (korxonalar soni 1 ta, 0,1 foiz), Ishlab chiqaradigan sanoat 55 357,6 (korxonalar soni 6 ta, 10,8 foiz), Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 439 197,7 mln. so‘m (zarar ko‘rgan korxonalar soni 3 ta, Respublika bo‘yicha jami zarar miqdorining 85,2 foizi) hissalari to‘g‘ri keldi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari

	Korxonalar soni	Zarar so‘mmasi	
		mln. so‘m	jamiga nisbatan % da
Jami	11	515 384,8	100,0
Savdo	1	702,1	0,1
Ishlab chiqaradigan sanoat	6	55 357,6	10,8
Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish	1	20 127,4	3,9
Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash	3	439 197,7	85,2

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha zarar ko‘rgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari (jamiga nisbatan % da)



**2023-yilning yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida
zarar kurgan korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy natijalari**

	Korxonalar soni	Zarar ko‘rgan korxonalarning ulushi, % da	Zarar so‘mmasi, mln. so‘m
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	11	100,0	515 384,8
Nukus sh.	2	0,3	1 539,6
Taxtako‘pir	2	4,2	21 517,7
Taxiatosh	2	85,0	438 360,1
Qonliko‘l	1	4,5	23 240,6
Kegeyli	2	0,1	325,7
Qorao‘zak	1	5,1	26 252,3
Xo‘jayli	1	0,8	4 148,8

Korxonalar va tashkilotlarning debitorlik va kreditorlik qarzdorlik holati¹

2023-yilning 1-dekabr holatiga debitor qarzdorlikning umumiy hajmi 2 811,1 mlrd. so‘mni tashkil qildi, shundan muddati o‘tgan 9,6 mlrd. so‘m yoki jami qarzdorlikning 0,3 foizini tashkil etgan. Muddati o‘tgan debitor qarzdorlik 2022-yilning 1-dekabriga nisbatan 56,1 % ni tashkil etib, 7,5 mlrd. so‘mga kamaygan.

2023 yil 1 dekabr holatiga vazirlik va idoralarning debitor qarzdorligi (jami nisbatan % da)

Debitor qarzdorlik jami	%
“O‘zpaxtasanoat” AJ	0,3
“O‘zdonmahsulot” AJ	3,1
“O‘zkimyosanoat” AJ	1,3
“O‘zavtosanoat” AJ	0,1
“O‘zbekneftgaz” AJ	1,6
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	4,6
Boshqalar	89,0

¹⁾Budjet va boshqa notijorat tashkilotlar, mahsulot ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer va dehqon xo‘jaliklari, sug‘urta tashkilotlari, banklar, kichik korxonalar va mikrofirmalarsiz.

2023-yil 1-dekabr holatiga jami debitor qarzdorliklar hajmi 2 811,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi, debitor qarzdorliklarning asosiy qismini “O‘zpaxtasanoat” AJ 9,5 mlrd. so‘m (0,3 foiz), “O‘zdonmahsulot” AJ 84,8 mlrd. so‘m (3,1 foiz), “O‘zkimyosanoat” AJ 36,8 mlrd. so‘m (1,3 foiz), “O‘zbekneftgaz” AJ 45,2 mlrd. so‘m (1,6 foiz), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 130,3 mlrd. so‘m (4,6 foiz), O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi 0,7 mlrd. so‘m (0,02 foiz) “O‘zavtosanoat” AJ 2,7 mlrd. so‘m (0,1 foiz) hamda boshqalar 2501,1 mlrd. so‘m (89,0 foiz) hissalariga to‘g‘ri keldi.

2023-yil 1-dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan debitor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mlrd. so‘m	shundan:			Muddati o‘tgan qarzdor- likning ulushi, % da
		xaridor va buyurtma- chilar	yetkazib beruvchilarga va pudratchi- larga berilgan avanslar	ichki idora- viy	
Jami	9,6	7,9	-	-	100,0
Ishlab chiqaradigan sanoat	9,0	7,3	-	-	93,7
Tashish va saqlash	0,6	0,6	-	-	6,3

2023-yil 1-dekabr holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha muddati o‘tgan kreditor qarzdorlikning tarkibi

	Jami, mlrd. so‘m	shundan:			Muddati o‘tgan qarzdor- likning ulushi, % da
		yetkazib beruvchilar va pudratchi- larga	mehnatga haq to‘lovlar bo‘yicha qarz	Byudjetga davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz	
Jami	12,6	3,8	7,9	0,5	100,0
Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	10,0	1,2	7,9	0,5	79,4
Ishlab chiqaradigan sanoat	1,1	1,1	-	-	8,7
Tashish va saqlash	1,5	1,5	-	-	11,9

**2023-yilning 1-dekabr holatiga vazirlik va idoralarning
kreditor qarzdorligi (jamiga nisbatan % da)**

<i>Kreditor qarzdorlik, jami</i>	<i>%</i>
“O‘zpaxtasanoat” AJ;	0,1
“O‘zdonmahsulot” AJ	1,4
“O‘zkimyosanoat” AJ;	0,4
“O‘zbekneftgaz” AJ	0,4
“O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ	3,1
Boshqalar	94,6

2023-yilning 1-dekabr holatiga jami kreditor qarzdorliklar hajmi 3 600,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi, kreditor qarzdorliklarning asosiy qismi “O‘zpaxtasanoat” AJ 3,3 mlrd. so‘m (0,1 %), “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ 110,0 mlrd. so‘m (3,1 %), “O‘zdonmahsulot” AJ 51,2 mlrd. so‘m (1,4 %), “O‘zkimyosanoat” AJ 16,3 mlrd. so‘m (0,4 %), “O‘zbekneftgaz” AJ 14,4 mlrd. so‘m (0,4 %), O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi 0,4 mlrd. so‘m (0,01 %) hamda boshqalar 3 404,7 mlrd. so‘m (94,6 %) hissalariga to‘g‘ri keldi.

STATISTIK KO‘RSATKICHLARGA IZOHLAR

Daromad (foyda) solig‘i to‘lagunga qadar foyda (zarar) – korxonalar va tashkilotlarning barcha xo‘jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettiradigan yakuniy moliyaviy natija. Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari), asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari va favqulodda foyda yig‘indisidan davr xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar va favqulodda xarajatlar chegirib tashlanadigan foydaning umumiy foydasini (zararini) ifodalaydi.

Debitorlik qarzlari – xaridorlar va buyurtmachilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzlari, xodimlarga, mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo‘naklar, budjet va davlat maqsadli jamg‘armalariga soliqlar, yig‘imlar va sug‘urta bo‘yicha bo‘nak to‘lovlari, muassislarning ustav fondidagi ulushlari bo‘yicha qarzi, xodimlarning boshqa operatsiyalar bo‘yicha qarzlari va boshqa debitorlik qarzlari o‘z ichiga oladi.

Kreditorlik qarzlari – yetkazib beruvchilar va pudratchilar, sho‘ba va qaram xo‘jalik jamiyatlarining qarzi, soliq va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha muddati kechiktirilgan majburiyatlar, olingan avanslar, budjetga to‘lovlar bo‘yicha qarz, sug‘urta bo‘yicha qarz, davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarz, ta‘sischilarga qarzlari, mehnatga haq to‘lash bo‘yicha qarzlari va boshqa kreditorlik qarzlari o‘z ichiga oladi.

Mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) – tayyor mahsulot, tovar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, sotilgan tovarlarning qaytishi, sotish va baholardan chegirmalar qo‘shimcha qiymat solig‘i hamda aksiz solig‘ini qo‘shgan holda.

Muddati o‘tgan qarzlari – qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda so‘ndirilmagan qarzning umumiy summasi.